

Problems And Solutions Of Teaching A Foreign Language To Under-Profit Students In Remote Areas

Qarayeva Munisa

Surkhandarya Law College

Student of Judicial Legal Activities, Group 5-24

Abstract

This article highlights the main problems faced by underprivileged students living in remote areas in learning a foreign language and the proposed solutions to eliminate them. The study provides an analysis based on practical examples, statistical data, and educational methods.

Keywords: foreign language, educational problems, remote areas, underprivileged students, educational opportunities, solutions.

Anontatsiya

Mazkur maqolada olis hududlarda yashovchi ka'm ta'minlangan o'quvchilarning chet tilini o'rganishda duch kelayotgan asosiy muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif etilgan yechimlar yoritilgan. Tadqiqotda amaliy misollar, statistik ma'lumotlar va ta'limiy metodlar asosida tahlil berilgan.

Kalit so'zlar: chet tili, ta'lim muammolari, olis hudud, ka'm ta'minlangan o'quvchilar, ta'lim imkoniyati, yechimlar.

Bugungi kunda ingliz va chet tillarini mukammal o'rganish nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki yaxshi ta'lim olish va kelajakda yaxshi ish topishning asosiy kalitlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek mamlakatimizning chekka hududlarida yashovchi ko'plab kam ta'minlangan oilalarining farzandlari uchun sifatli, arzon va qulay chet tili ta'limini olish juda qiyin. Sababi, bunday joylarda malakali o'qituvchilar yetishmaydi. Shuningdek, zamonaviy o'quv materiallari, texnologik vositalar va qulay sharoitlar deyarli mavjud emas. Vaholanki, bu bolalar ham yurtimizning ertangi kelajagi, ularning bilimlari, chet tillarini yaxshi biladigan, zamonaviy fikrlaydigan yosh avlod bo'lib ulg'ayishlari mamlakatimizning ertangi kelajagi uchun muhim. Shuning uchun ularga qulay va arzon, sifatli, eng asosiysi samarali o'quv usullarini eng olis hududlarda joriy qilish juda dolzarb masala hisoblanadi. Bu maqolada olis hududlarda kam ta'minlangan o'quvchilar uchun chet tilini qiziqarli va tushunarli tarzda o'rgatishning samarali yo'llari, oddiy

materiallardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar, bepul onlayn resurslar va yangi pedagogik yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek olis hududlarda yashovchi kam ta'minlangan o'quvchilarning chet tilini o'rganishda uchraydigan asosiy muammolari, ularning sabablari hamda ularni bartaraf etish yo'llari yoritiladi. Mavjud shart-sharoitlar tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Shuningdek ushbu yondashuvlar yordamida o'quvchilarning chet tiliga qiziqishini oshirish ularni dars jarayoniga faol jalb qilish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Chet tilini kam ta'minlangan bolalar uchun samarali va oson o'rganishga yordam beradigan asosiy vazifa-mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanib, bolalarni darsga qiziqitirishdir. Resurslar yetrali bo'lmasa ham, qulay va ijodiy metodlar orqali sifatli ta'limni yo'lga qo'yish mumkin. Bunda Wendy A. Scott va Lisbeth H Ytrebergning "Teaching English to children" kitobidan tavsiya etilgan quyidagi

metodlar aynan kam sharotli o'quvchilar uchun juda mos keladi.

Birinchidan, o'yin asosida o'rganish nafaqat so'zlarni o'zlashtirishni tezlashtiradi, balki bolalar o'rtasida do'stlik, hamkorlik, guruh bo'lib ishlash kabi ijtimoiy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Masalan, Word Bingo kabi oddiy o'yinlarda bolalarda yangi so'zlarni eslab qolishga harakat qiladi. Ikkinchidan qo'shiqlar va she'rlar bolalar uchun o'rganish jarayonini ko'ngilochar qiladi. Ingliz tilidagi oddiy qo'shiqlar: "Head shoulders", "Knees and toes" yoki "if you are happy and you know it" kabi qo'shiqlar harakatli ritmik bo'lib, bolalarning so'z boyligini oshiradi, talaffuzini yaxshilaydi va darsga jonlilik olib kiradi. Uchinchidan, hikoya aytish (story telling) orqali bolalar so'zlarning ma'nosini tushunadi, eshitish va tushunish ko'nikmalari rivojlanadi. Eng muhimi, kam ta'minlangan sharoitda hech qanday maxsus material talab etilmaydi. O'qtuvchi og'zaki oddiy hikoyalar aytib, bolalar bilan suhbat o'tkazishi mumkin. To'rtinchidan, harakatli faoliyatlar til o'rganishda bolani faollashtiradi, shuningdek, ularning tabiatiga mos: bolalar ko'proq o'yin va harakat orqali o'rganishni yaxshi ko'radi. Masalan, o'qtuvchi "Touch your nose", "Clap your hands" kabi buyruqlar orqali bolalarni harakatga keltiradi va shu orqali yangi fe'llarni oson o'rgatadi. Oddiy va aniq tilni ishlatish esa asosiy qoida: bolalarni qo'rqitadigan murakkab qoidalar o'rniga kundalik hayotda ishlatiladigan iboralar o'rgatilsa ular tezda muloqot qila boshlaydi. Va shuningdek Lynne Cameronning "Teaching Young Language Learners" kitobi ham yosh bolalarga chet tilini samarali o'rgatish bo'yicha juda mashhur manba yosh bolalar uchun tilning kontekstdagi ma'nosi muhim. Cameron bolalar so'zlarni alohida o'rganishdan ko'ra ularni hikoya, o'yin yoki suhbat kontekstida tushunishi va qo'llashini ta'kidlaydi. Bu

bolaga so'zning haqiqiy vaziyatda ishlatilishini osonlashtiradi. Lynne Cameron o'zining "Teaching Languages to Young Learners" asarida bolalarning psixologik ijtimoiy va emotsional ehtiyojlarini chuqur tahlil qiladi. U til o'rganish jarayonini bolalar uchun qulay tushunarli va qiziqarli qilish kerakligini ta'kidlaydi. Bu ayniqsa olis hududlarda yashovchi moliyaviy jihatdan imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun juda muhim. Cameron metodikasi resurslar kam bo'lgan sharoitda ham ishlaydi. Masalan: o'yinlar, hikoyalar, harakatga asoslangan mashqlar va rasmi topshiriqlar orqali o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish mumkin. Bu metodlar tilni dars emas, balki o'yin yoki muloqot sifatida qabul qilishlariga yordam beradi. Aynan shunday yondashuv kam ta'minlangan bolalarda chet tilini o'rganishga bo'lgan ishonch va motivatsiyani kuchaytiradi. Shuningdek, Cameronning tavsiyalarida o'qtuvchining hissiy qo'llab-quvvatlashi alohida o'rin tutadi. O'quvchi xatolardan qo'rqmasligi oz fikrini erkin ifodalashi va rag'batlanishi kerak. Bunday muhit, ayniqsa o'zini jamiyatda ikkinchi darajali deb hisoblaydigan bolalar uchun nihoyatda muhimdir. Shu bois, ushbu kitobdagi metodlar orqali o'qtuvchilar darsni mehrli interaktiv va samarali shaklda tashqil qilish mumkin. Chet tilini o'rganish imkoniyati har bir o'quvchi uchun teng bo'lishi kerak. Afsuski olis hududlardagi kam ta'minlangan oilalarning farzandlari ko'pincha yaxshi ta'limdan chetda qolib ketmoqda. Bunday vaziyatda davlat tomonidan ijtimoiy yordam dasturlarini kuchaytirish, nodavlat tashkilotlar va ko'ngillarni jalb etish orqali bu tengsizlikni kamaytirish mumkin. Bugun hatto chekka hududlarda ham ko'pchilikning qo'lida telefon bor. Shu telefonlar orqali quyidagi bepul mobil ilovalar hatto foyda keltiradi. Duolingo, Ling Q, BBC Learning English, You to be kanallari (masalan, "Engkisg Addict", "Learn English Kids")

orqali o'quvchilar mustaqil til o'rganishlari mumkin. Mahalliy o'qtuvchilar ushbu ilovalarni dars jarayoniga integratsiya qilish orqali bolalar uchun darsni qiziqarli qiladi. Shuningdek, har bir hudud o'zining resurslariga ega. Masalan, ko'ngilli talabalar va o'qtuvchilarni jalb qilish, kutubxonada chet tilidagi burchak (book corner) tashkil etish o'quvchilarning o'ta-onalari yoko jamoa a'zolarini darslarga qiziqtirish, bu orqali o'quvchilar uyda ham o'rganishni davom ettiradi. Shunindek UNESCO hisoboti ham shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'yicha millonlab bolalar hali ham sifatli ta'limdan bexabar bo'lmoqda. Ayniqsa, olis hududlarda yashovchi va kam ta'minlangan oilarning farzandlari uchun malakali o'qtuvchilarga ehtiyoj katta, bolalar orasida o'qishga rag'bat sust, til o'rganish imkoniyati past. UNESCO shuni tavsiya qiladiki interaktiv va inklyuziv ta'limga o'tish, texnologik imkoniyatlarni kengaytirish va o'qtuvchilarni malakasini oshirish kerak. Mahalliy til va madaniyatni hisobga olish: chet tilini mahalliy kontekstda o'rgatish samaradorlikni oshiradi. "UNESCO"ning 2023-yilgi GLOBAL MONITORning report hisobotida ta'kidlanishicha, olis hududlardagi bolalar ayniqsa, kam ta'minlangan qatlam vakillari uchun chet tilini o'rganish imkoniyatlari juda cheklangan. Shuning uchun ta'lim tizimi zamonaviy qulay va teng imkoniyatli bo'lishi zarur. UNESCO hisobotidan shuni ko'rinadiki, til o'rganish imkoniyatlari teng taqsimlanmagan. Shuning uchun davlat siyosati ta'lim muassalari va jamiyat birgalikda olis hududlardagi bolalarga zamonaviy, texnologik va inklyuziv yondashuvlarni taqdim etish kerak. Aks holda ta'limdagi tengsizlik davom etadi kam ta'minlangan bolalar global raqobatga tayyor bo'lmay qoladilar. Ta'lim va innovatsiyalar jurnalining 2024-yildagi 3-sonida ham qishloq joylarda xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb muammolari keng yoritilgan. Mazkur jurnalda O'zbekistonning

qishloq hududlarida chet tilini o'rgatishdagi asosiy muammolar va ular uchun taklif etilgan amaliy yechimlar keng yoritilgan. Ayniqsa, kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun til o'rganish imkoniyatlari haqida chuqur tahlil berilgan. Ko'plab qishloq maktablarida darslar grammatikani yodlashga qaratilgan bo'lib, amaliy mashg'ulotlar deyarli mavjud emas. Bu esa o'quvchilarda tilni real hayotda qo'llash ko'nikmalarining shakllanmasligiga olib keladi. Shuningdek, chekka hududlarda til o'qtuvchilari ko'pincha to'liq malakaga ega emaslar yoki yangi metodlardan xabardor emaslar. Ba'zilar hatto chet tillarini o'zlari ham yetarli darajada bilmaydilar. O'qtuvchilar uchun har yili viloyat miqyosida til o'qtuvchilari uchun zamonaviy metodikalar uchun treninglar o'tkazilishi zarurligi aytiladi. Ayniqsa, CLIL (Content and Language Integrated Learning) va TPR (Total Physical Response) kabi metodikalar tavsiya etiladi. CLIL metodikasi (Content and Language Integrated Learning) ya'ni mazmun va integratsiyalashgan o'qitish degani. CLIL bu bir vaqtning o'zida chet tilini va boshqa biror fanni (masalan, biologiya, geografiya, tarix) kabi fanlarni o'rgatish usulidir. CLIL metodining asosiy g'oyasi: O'quvchilar chet tilini alohida dars sifatida emas, balki boshqa fanlar orqali ham o'rganadi. Ya'ni ular fan mazmunini o'zlashtirayotib, tilni ham o'rganishadi. Misol: ingliz tilida geografiya darsini o'tish – o'quvchi ingliz tilida "mountains", "river", "climate" kabi so'zlarni o'rganib geografik bilimlarni ham egallaydi. TPR (Total Physical Response) – bu metod jismoniy javob asosidagi metod. TPR – bu metod James Asher tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, til o'rganishda tana harakatlari orqali yangi so'z va iboralarni osonroq eslab qolishni ta'minlaydi. TPR metodining asosiy g'oyasi o'qtuvchi biror buyruq beradi, o'quvchilar esa bu buyruqni harakat orqali

bajaradi. Misol: O'qituvchi "stand up", "clap your hands", "jump", "touch your nose" "desa", o'quvchi shu buyruqlarni bajaradi. Bu usul ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilar uchun juda samarali, chunki ular harakatni so'z bilan bog'lab o'rganadilar. Bu metod eslab qolishni va tushunishni osonlashtiradi. Bu metodlarning afzalligi, tilni kontekstda o'rganish va qiziqarli va interaktiv o'rganish. Raqamli resurslar yaratish kerak. Mahsuz o'zbekcha interfeysli va qishloq bolalari uchun va moslashtirilgan chet tili o'rganish platformalarini ishlab chiqish lozimligi urg'ulanadi. Bu platformalar hatto internet bo'lmasa ham ishlay oladigan tarzda tuzilishi kerak. Til muhitini shakllantirish kerak o'quvchilarga sinfda va maktab atrofida inglizcha

yozuvlar, lavhalar, plakatlar yaratish maktab ichida kichik, "English Corner" (Ingliz tili burchagi) tashkil qilish tavsiya etilgan.

Ta'lim va innovatsiyalar jurnalidagi maqola asosida aytish mumkinki, chekka hududlardagi bolalar uchun chet tilini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish birgina dars soatlarining ko'pligi bilan emas, balki sifatli o'qitish, texnologiyalar bilan ta'minlash, o'qituvchilar malakasini oshirish va motivatsion muhit yaratish bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" - mamlakatning har bir sohasini xususan ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan eng muhim hujjatlardan biridir. Mazkur strategiya bir nechta ustuvor yo'nalishlari ta'limdagi tengsizlikni kamaytirish chekka hududlarni qo'llab-quvvatlash va chet tillarini o'rganishga sharoit yaratish bilan bog'liq. Ayniqsa, kam ta'minlangan xizmatlarga teng kirish imkoniyatini yaratish dolzarb masala sifatida ko'rsatilgan. Hududlar o'rtasida ta'lim tafovuti bor. Strategiyada aynan

qishloq va shahar maktablari o'rtasidagi farqni kamaytirish vazifasini belgilaydi. Bu holat, til o'rganish imkoniyatlariga ham talluqlidir, chunki chet tillari ko'proq shaharlardagi maktablarda sifatli o'rgatilmoqda. Agar qishloq bolalari uchun teng imkoniyatlar yaratilmasa ta'limdagi tafovut chuqurlashib boraveradi. Bu esa nafaqat til o'rganish, balki ularning kelajakdagi hayot sifatig ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqoda ko'tarilgan masala olis hududlarda kam ta'minlangan bolalarga chet tillarini oson, qulay, arzon va sifatli o'rgatishning yo'llari dolzarb va muhim hisoblanadi. Tadqiqot davomida ushbu muammoning asosiy sabablari, oqibatlar va uni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Amaliy tavsiyalar orqali mazkur sohada ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkinligi ta'kidlanadi. Chet tilini o'rganish bugungi globallashuv davrida har bir shaxs uchun muhim ehtiyojga aylanmoqda. Til o'rganish nafaqat bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki insonning dunyoqarashini kengaytiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va xalqaro imkoniyatlar eshigini ochadi. Mazkur maqolada chet tilini o'rganishning ahamiyati, duch kelinadigan muammolar va ularni yengib o'tish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, til o'rganishda motivatsiya, samarali metodlar va atrof-muhitning o'rni alohida ta'kidlanadi. Xulosa qilib aytganda, har qanday inson intilish, qat'iyat va to'g'ri yondashuv bilan chet tilini muvaffiqiyatli o'zlashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Wendy A. Scott va Lisbeth .H Ytrabergning "Teaching English to Children".
Lynee Cameron (2001) "Teaching Young Language Learners". Cambridge University Press
UNESCO (2022). Til o'rgatishda innovatsion yondashuvlar: O'lis hududlar tajribasi. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali.